

---

**ABU MANSUR AL- MOTURIDIY HAYOTI VA ILM FANGA  
QO'SHGAN HISSASI**

**Xudoyberdiyeva Mohiniso Bobomurod qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail:xudoyberdiyevamohiniso158@gmail.com*

*Tel:+998952193507*

**Abdullayeva Nilufar Xudoynazar qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail:axmedovaiqboloy69@gmail.com*

*Tel:+998886581999*

**Annotatsiya.** Abu Mansur Moturudiy (IX asr oxiri -X asr boshi)-islom ilohiyati va kalom ilmining yirik namoyandalaridan biri, moturidiya ta'limotining asoschisi. U Samarqandda tug'ilib, aynan shu yerda ilmiy faoliyat yuritgan. Moturudiya aqidaviy masalalarda aql va mantiqni asos sifatida olgan, islomiy e'tiqodda o'rtacha yo'l - mo'tadillik tarofdori bo'lgan. U o'z qarashlarida inson aqlining o'rnnini yuqori baholagan va din bilan aql o'rtasidagi uyg'unlikni ta'kidlagan. Uning eng mashhur asarlaridan biri "Kitob at-Tawhid", unda u ilohiyat, e'tiqod va inson erkinligi haqida fikr bildirgan. Moturudiya mazhabi, asosan, hanafiylik bilan boq'liq bo'lib, hozirgi kunda ham keng tarqalgan. Abu Mansur Moturidiy o'zining chuqur ilmiy merosi bilan islom tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatgan olimlardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Kitob at-Tawhid, musulmon aqidasini isloh etuvchi, Samarqand, Raboti G'oziyon, an-Nasafiy, Toshko'pirzoda, Abu Bakr Juzjoniy, Chokardiza

**Abstract.** Abu Mansur Maturidi (late 9th century - early 10th century) is one of the major figures in Islamic theology and theology, the founder of the Maturidi doctrine. He was born in Samarkand and carried out his scientific activities there. Maturidi took reason and logic as a basis in doctrinal matters, and was a supporter of the middle path - moderation in Islamic faith. He highly valued the place of human reason in his views and emphasized the harmony between religion and reason. One of his most famous works is "Kitab at-Tawhid", in which he expressed his views on theology, faith and human freedom. The Maturidi school is mainly associated with

*Hanafism and is still widespread today. Abu Mansur Maturidi is considered one of the scientists who had a great influence on Islamic thought with his deep scientific heritage.*

**Keywords:** *Kitab al-Tawhid, reformer of Muslim faith, Samarkand, Rabati Ghaziyan, an-Nasafi, Tashku'pirzade, Abu Bakr Juzjani, Chokardiza,*

**Абстрактный.** Абу Мансур Матуриди (конец IX века — начало X века) — один из величайших деятелей исламского богословия и теологии, основатель матуридского учения. Он родился в Самарканде и там же занимался научной деятельностью. Матуриди брал за основу разум и логику в вопросах веры и был сторонником срединного пути — умеренности в исламской вере. В своих взглядах он высоко ценил место человеческого разума и подчеркивал гармонию между религией и разумом. Одним из его самых известных трудов является «Китаб ат-Таухид», в котором он изложил свои взгляды на теологию, веру и свободу человека. Матуридитская школа мазхаба в основном связана с ханафитским мазхабом и широко распространена в наши дни. Абу Мансур Матуриди считается одним из ученых, оказавших большое влияние на исламскую мысль благодаря своему глубокому научному наследию.

**Ключевые слова:** Китаб ат-Таухид, реформатор мусульманской веры, Самарканد, Рабати Газиян, ан-Насафи, Ташкупирзаде, Абу Бакр Джуджани, Чокардиза.

**Kirish:** To'liq ismi- Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturudiy Samarqandiy. Tarixchilar uning tabarruk nomini yuksak va sharaflı unvonlar bilan zikr qilgan. Musulmon olamidan chiqqan sanoqli allomalargina Imom Moturudiya berilgan ana shunday unvonlar nasib etgan. Alomma o'z zamonasidayoq "Hidoyatga boshlovchi imom", "Sunnat va hidoyat ahli peshvosi", "Ahli sunna val jamoa bayrog'ini baland ko'taruvchi", "Xurofat va bid'atga botgan uydirmalarni ildizi bilan qo'poruvchi", "Musulmon aqidasini isloh etuvchi "kabi yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lgan.

Imom Moturudiy 870- yilda qadim Samarqandning Moturid qishlog'ida tug'ilgan. U dastlabki ta'limni otasi Muhammad ibn Mahmuddan olgan. So'ngra o'sha davrdagi boshlang'ich maktabda o'qigan. Keyin esa ta'limni Samarqanddagi Raboti G'oziyon masjidi huzuridagi madrasada davom ettirgan. Hayoti asosan

Samarqandda o'tgan. Bu yerda ko'plab yetuk olimlardan saboq olgan. Alloma Abul Hasan Rustufag'niy, Is'hoq ibn Muhammad Samarqandiy, Abdulkarim Pazdaviy va boshqa ko'plab mashhur olimlar tarbiyalagan. Alisher Navoiy o'zining "Nasoyimul muhabbat" asarida Imom Moturudiyni "Sultonul muizzin" ya'ni "Faxriy olimlar sultoni"deya e'tirof etgan. Moturidiyning ustozi Abu Nasr Iyodiy ilm majlislarida u yetib kelmagunicha darslarini boshlamay turgani e'tirof etiladi. [1, 43-b]

Moturidiyning ilk ustozi Abu Bakr Juzjoniy bo'lib, uning Samarqand hanafiya mактабини rivojlantirishdagi о'rni katta bo'lган. O'z navbatida, Movarounnahr va Xurosonda fiqh ilmining tarqalishida bu olimning xizmatlari, shubxasiz beqiyosdir. Biz Abu Bakr Juzjoniyni mutakkalim deyishimizga asosimiz yo'q. Shu bois Moturidiyning undan kalom sohasida emas , balki hanafiya fiqhi bo'yicha tahsil olgan, deb xulosa qilishimiz mumkin bo'ladi.[5, 4-b]

Butunlay o'zgacha holatni Moturidiyning ikkinchi ustozi bo'lmish Abu Nasr Iyodiyda ko'rishimiz mumkin. Abu Mansur Moturudiy ustozi Abu Nasrdan bir qancha muddat dars olgan. Moturidiya bu ustozining ta'siri katta bo'lган. Lekin uning ilohiyotchlik sohasidagi bilimlari islomda aytarli iz qoldirmagan. Moturudiy Iyodiydan faqatgina islom mezonlarini o'rganish bilan cheklanib qolmasdan , balki uni atroflicha qamrab olish va izchil tahlil qilishni o'rgangan. Iyodiy uni aqldan fikr yuritib, ilohiyot borasida munozaralar olib borishga o'rgatadi. Abu Mansur Moturidiyning hayoti o'sha vaqtida Samarqandda rivojlangan ilohiyot ilmining ikkinchi davriga to'g'ri keladi. [2, 8-b]

**Asosiy qism:** Allomaning hayoti va ilmiy merosi aks etgan tarixiy manbalarda o'zi va otasining ismi Muhammad va bobosining ismi Mahmud ekanligi haqidagi qaydlardan boshqa ma'lumotlar uchramaydi. Lekin uning Abu Mansur deb atalishidan shu ismli o'g'li bo'lган degan tahminga ham boorish mumkin .

Biroq, bironta manbada uning o'g'li bo'lgani haqida ma'lumot yo'q. Fikrimizcha, Moturidiyning Mansur ismli o'g'li bo'lganida, birinchi navbatda Abul Muin an- Nasafiy "Tabsirat al-adilla" asarida bu haqida ma'lumot bergen bo'lardi. Shundan kelib chiqib, Moturidiyning o'g'li bo'lмаган, degan to'xtamga kelish mumkin. Moturidiyning ilmiy merosini tadqiq qilgan zamonaviy sharqshunoslar ham uning o'g'il farzandi bo'lмаганини ta'kidlab o'tganlar. Turk tadqiqotchisi Shukru O'zenning ta'kidlashicha, Moturidiyning

o'g'il farzandi bo'lganida, albatta, manbalarda bu haqida ma'lumot berilgan bo'lar edi.

"Abu Mansur" nomiga kelsak, manbalarda kelgan rivoyatlarga ko'ra, Moturudiy o'g'il farzand ko'rish orzusida o'zini shunday nomlagan. Tadqiqot natijalarida Moturudiy nomi bilan bog'liq ikki haqidagi ma'lumotlarga duch kelamiz. Bular Moturudiyning ikki evarasi, ya'ni qizining nevaralari deb tahmin qilingan [3, 59-b]

Abu Mansur al- Moturudiy islom olamida o'zining g'oyaviy qarashlari, ilohiyot borasidagi nazariyalari bilan katta mavqega ega mutakkalim hisoblangan. Chunki, u tarixda aqida ilmi bo'yicha keng yoyilgan va jumxur ulamolar to'g'ri e'tiqod sifatida e'tirof etgan ikki aqidaviy mактабдан birining asoschisidir. Ushbu maktablardan biri Bag'dodda paydo bo'lgan ash'ariya ta'limoti bo'lsa, ikkinchisi Mavarounnahrda, aniqrog'i Samarqandda namoyon moturidiya ta'limotidir. Mashhur qomusiy olim Toshko'prizoda "Miftax assaoda" asarida Moturudiyning ilmiy merosiga shunday baho bergan: "Ahli sunna val jamoaning kalom ilmidagi rahnomalari ikki kishidir. Biri hanafiy bo'lsa, ikkinchisi shofiiydir. Hanafiy rahnamo Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud Imom al- xuda, Rais ahli sunna val jamoa al- Moturudiy as-Samarqandiydir. Shofiiy rahnamo esa Shayx ahli sunna, Rais al-jamoa, Imom al- mutakallimin Abul Xasan al- Ash'ariy al- Basriydir" [4 ].

Hanafiya ulamolari hisoblangan moturudiya ta'limoti vakillari Moturudiyni o'zlarining aqidadagi imomlari deb hisoblashgan. Xazrat Navoiy o'zi hikoya qilgan bu hayoti - xol nihoyasida: "Shayxning muborak qabrlari Samarqandning Chokardiza go'rustonidadir. Zamon podshosi ul mutabarruk mazori boshida mutakkalif (bezatilgan) masjid yasaptur" deb yozadi. O'zi g'oyat zako, o'tkir zehnli doho bo'lган ulug' mutafakkir Alishir Navoiy Moturudiya Tanri inoyat etgan botuniy ilmlarini teran va ravshan fahmlagan va takidlab o'tgan .Shuning uchun ham uning buyuk vatandoshimiz Shayx Abu Mansur Moturudiy xaqida bitgan basfi va tarifi biz uchun beqiyos katta ma'noga ega "Hasoyim ul - muxabbat" da bayon etilgan bu bebaho sifatlar buyuk shayx Abu Mansur Moturudiy olamshumul daxo, ulug' alloma bo'lganligidan dalolatdir .

Avliyo martabasiga erishgan buyuk zot bo'lmish Abu Mansur Moturudiy tasavvufda alam yo'lboshchi edi va Islomda ham alam bo'ldi . Agar Moturudiy tasavvufda avliyo, alam bo'lmasidan Islomda ham alam bo'lmas edi.

Abu Mansur Moturudiy ilmiy me'rosiga oid asarlar, ma'lumotlarga ko'ra quydagicha ko'rsatiladi; "Uning eng muxum asarlari sifatiga qudagilarni qayd etib etish mumkin", deb yozadi A. Zoxidiy ;

1. "Kitob tavilat -ul – Quron" yoki "Tavilati Axli sunna" -Quron va Sunnatning rasmiy tavillari, yani rasmiy islomiy talqini, sharxlari bitilgan kitob.
2. "Kitob maaxaz ash Sharia"- Shariat asoslari va sofliги haqidagi kitob.
3. "Kitob ul -Jadal" – diniy aqoidiy baxs -munozaralarga g'olib kelishi haqidagi kitob.
4. "Kitob ul- Usul" ( Usul ad -dina ") -diniy talimot uslubiyatiga oid asar.
5. "Kitob ul – maqolot fi-usul ad - din" -diniy talimot uslubiyotiga bag'ishlangan munozaraviy maqolalardan tuzilgan kitob.
6. "Risolat ut - tavxid" - Olloxning yakkayu yagonaligi, birligi, vaxdaniyat dini, yani ilim - ul aqoidning nazariy asoslari haqidagi kitob.
7. "Kitob bayin vaxm ul-mutazila" - mutazila budat - g'avg'olari va undan xayiqmaslik xaqidagi kitob .
8. "Kitob radd avail -ul -adilla li al -Kabiy" mutazilada kabiylar maktabi asoschisi Kabiy zalolatlarning boshlanishini rad qilishga bag'ishlangan kitob.
9. "Kitob radd taxzib al - Jadalli – Kabi"- Kabiy ilgari surgan Kalomdagi baxt usuli (jadal) ni rad etish xaqidagi kitob"
10. "Kitob radd vaid - ul -fussak li – l - Kabiy" – Kabiyning fisk – fasod vadalarini rad etish xususidagi kitob . [6, 10-b]

Abu Mansur al-Moturudiy aqoid, kalom ilmida o'zining aqidaviy qarashlariga xos kalomiy ta'limotiga tamal toshini qo'yib ketgan. Garchi o'zi hayotlik chog'ida bu ta'limot uning nomi bilan e'tirof etilmagan bo'lsa -da, keyinchalik butun islom olamida "moturudiya talimoti" deb tan olindi. Natijada ushbu ta'limotning aqidaviy g'oyalari V / XI - VII / XII asrlarda Movarounnahrdan boshqa o'lkalarga xam sekin - asta tarqala boshladi.

Albatta, bunda Abu Mansur al- Moturudiy aqidaviy qarashlarni davom ettirgan va moturudiya ta'limoti vakillari sifatida e'tibor qilingan ko'plab

hanafiy ulamolarning xizmatlari taxsinga sazovardir. Tarixga nazar tashlasak, VIII / XIV – XI / XVII asrlarga kelib nafaqat Movarounnahrda, balki boshqa islom dunyolarida ham moturudiya ta'limoti vakillari yetishib chiqqaniga guvoh bo'lamiz.

Quyida moturudiya ta'limoti vakillari bo'lgan bir qancha hanafiy ulamolarning ilmiy meroslari xaqida ma'lumot berishga harakat qilamiz:

Abul Yusur al – Pazdaviy .Sadr al - islom Abul Yusr Muxammad ibn Muxammad ibn Abdulkarim al -Pazdaviy 421 /1030 yilda tug'ulgan. Dastlabki saboqni otasi Abul Xasan Muxammad al - Pazdaviydan olgan. Moturudiyning shogirdlaridan bo'lgan bobosi Abdulkarim ibn Muso orqali Samarqand kalom maktabi bilan tanishish imkonidan ham foydalangan. O'z davrida bir qancha xanafiy olimlaridan taxsil olgan. Ustozlari orasida Abu Yoqub Yusuf ibn Muxammad an – Nishopuriy va Abdul Xattob kabi olimlarning o'rni katta bo'lgan.

Moturudiy e'tiqod masalasida, avallambor Abu Xanifa talimotiga suyangan. Ma'lumki, Abu Xanifa ikki soha - fiqh va aqidaga oid yirik meros qoldirgan. Moturudiy Abu Xanifa ta'limotiga suyangan xolda, zamon talabidan kelib chiqib, uni taraqqiy etdirdi va islomning e'tiqodiy asoslarini qayta ishlab chiqdi. U o'zining ko'pgina fikrlarini "Kitob at- tawhid" asarida bayon etar ekan, xususan, o'zga toifadagi fikrlarga qarshi shunday so'zlarni aytadi: "Ular tafakkur va tadqiq bilan qarasalar edi, Alloh taolo ham bandalarini tafakkur va tadqiqot, ibrat va tajriba bilan ish qilishga buyurganini tushunar edilar, ibrat va tafakkur esa ilim manbalaridan biridir ". Moturudiy ta'limotining rasional mag'zi - malu'motlarni qabul qilishda mutaziliylar (arab - "ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar" ) kabi faqat aqilga suyanish emas, balki aqil bilan naqili qo'shib foydalanishning zarurligidir. Abu Mansur Moturudiy o'z maktab an'analari va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr islom ilohiyot matabining rivojlanishiga katta yetishida ularni qayta ishlab chiqib, ma'lum tizimga soldi. Shuningdik, u hanafiylikning Movarounnahr xalqlari urf – odatlariga ta'sirini o'z qarashlari orqali ko'rsatib berdi. Uning islom tarixida ko'rsatgan xizmatlari ham shunda ko'rindi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Abu Mansur Moturudiy - islom ilm fani tarixida chuqr iz qoldirgan buyuk allomalardan biridir. Uning

hayoti va ilmiy faoliyati, ayniqsa aqida ilmi sohasidagi hissasi beqiyosdir. U nafaqat o'z davrida, balki undan keyingi asrlar davomida ham musulmon dunyosida chuqur hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan. Moturudiy o'z asarlarida aqidaviy masalalarga aql va naql asosida yondashib, ilmiy dalillarga tayangan holda fikr yuritgan. U yaratgan moturudiylilik maktabi asrlar davomida islom aqidasi va falsafasining asosiy poydevorlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Moturudiy inson aqlini qadrlagan, uni haqiqatga eltuvchi vosita sifatida ko'rgan, ammo shuningdek vahiyining zarurligini ham alohida ta'kidlagan.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

1. Luqmon Bo'rixon. Imom Moturudiy. Toshkent. 2012.y
2. Ubaydulla Uvatov. Saidmuxtor Oqilov. Ergash Daminov. Moturudiya ta'limoti va Muin Nasafiy ilmiy merosi Toshkent .2018.y
3. Oqilov Saidmuxtor Movaronnahrdagi Moturudiya ta'limotining shakllanish tarixi .Toshkent 2012.
4. O'zbekiston Vazirlar mahkamasi. Toshkent Islom universiteti Islom shunoslik kafedrasи . Toshkent 2012.
5. Shavosil Ziyodov. Abu Mansur Moturudiy. Toshkent 2012.
6. Xamidxon Islomiy. Sulton ul - Muizzuddin Abu Mansur Moturudiy As - Samarqandiy . Toshkent 2000.